

**FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJA BERUVCHI
PhD.03/30.12.2019.K.05.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

TOJIBOYEV DOSTONBEK RAXIMJON O‘G‘LI

**AYRIM MOY BERUVCHI O‘SIMLIKLAR: KIMYOVIY TARKIBI VA ULAR
ASOSIDAGI KOMPOZITSION MAHSULOTLAR**

02.00.09 – Tovarlar kimyosi

**KIMYO FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Farg‘ona – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)

Content of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)

Tojiboyev Dostonbek Raximjon o‘g‘li

Ayrim moy beruvchi o‘simliklar: kimyoviy tarkibi va ular asosidagi kompozitsion mahsulotlar

5

Тожибоев Достонбек Рахимжон угли

Некоторые масличные культуры: химический состав и композиционные продукты на их основе

21

Tojiboyev Dostonbek Raximjon ogli

Some oleaginous plants: chemical composition and composite products based on them

41

E‘lon qilingan ilmiy ishlar ro‘uxati

Список опубликованных научных работ

List of published scientific papers

44

**FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJA BERUVCHI
PhD.03/30.12.2019.B.05.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

TOJIBOYEV DOSTONBEK RAXIMJON O‘G‘LI

**AYRIM MOY BERUVCHI O‘SIMLIKLAR: KIMYOVIY TARKIBI VA ULAR
ASOSIDAGI KOMPOZITSION MAHSULOTLAR**

02.00.09 – Tovarlar kimyosi

**KIMYO FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Farg‘ona – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiyasi komissiyasida B2024.3.PhD/K831 raqami bilan ro‘yxatga olingan.

Doktorlik dissertatsiyasi Qo‘qon davlat pedagogika institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.fdu.uz) va «ZiyoNet» Axborot ta’lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan

Ilmiy rahbar:

Isaqov Muxamedjan Yunusovich

kimyo fanlari nomzodi, dotsent

Rasmiy opponentlar:

Xojimatov Maxsadbek Muydinovich

kimyo fanlari doktori, professor

Imomova Mukammal Yermuxamatovna

kimyo fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Yetakchi tashkilot:

Namangan davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Farg‘ona davlat universiteti huzuridagi PhD.03/30.12.2019.B.05.03 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil “___” _____ soat _____ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (Manzil 150100. Farg‘ona shahar, Murabbiylar ko‘chasi, 19-uy. Tel.: (+99873) 244-44-02: faks: (+99873) 244-44-93: E-mail: fardu_info@mail.uz).

Dissertatsiya bilan Farg‘ona davlat universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (____ raqami bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 150100, Farg‘ona sh., Murabbiylar ko‘chasi.,19. Tel.:244-44-02, faks (99873) 244-44-93; e-mail: fardu_info@umail.uz).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil «___» _____ kuni tarqatildi.
(2025-yil _____dagi _____ raqamli reestr bayonnomasi).

V.U.Xo‘jayev

Ilmiy daraja beruvchi

Ilmiy kengash raisi,

kimyo fanlari doktori, professor

Sh.Sh.Turg‘unboyev

Ilmiy daraja beruvchi

Ilmiy kengash ilmiy kotibi, PhD

Sh.V.Abdullayev

Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash

qoshidagi ilmiy seminar raisi,

kimyo fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori PhD dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyoda aholi sonining ortishi, iste'mol mahsulotlariga bo'lgan talabning ortishiga olib kelmoqda. Bu o'z navbatida sifatli mahsulotlar bilan birgalikda turli xil sifatsiz mahsulotlarning ko'payishiga sabab bo'lmoqda. Birlashgan Millatlar Tashkiloti Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkilotining 2023-yilgi ma'lumotlariga ko'ra, dunyo bo'ylab 324,5 mln gektar maydonda 21 turdagi moyli ekinlardan 1,101 mln tonna mahsulot tayyorlangan. Asosiy moyli ekin sifatida palma, soya doni, paxta chigiti, raps urug'i va kokos o'simliklari yetishtiriladi. Shunday bo'lsa-da sifatli oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqish uchun xomashyolarning yangi zaxiralarini yaratish va ulardan turli usullar yordamida kerakli mahsulotlar olishning yangicha yo'llarini izlab topish hamda chiqindisiz texnologiyalar tizimidan foydalanish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi.

Jahonda o'simlik moylari nafaqat oziq-ovqat sifatida balki farmatsevtika, parfyumeriya, sanoat-qurilish asbob-uskunalarini moylashda va boshqa sohalarda ishlatilishi hamda moy ishlab chiqarish jarayonida ajralib chiqadigan ikkilamchi mahsulotlardan chorva hayvonlarini boqishda to'yimli ozuqa sifatida foydalanish borasida ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. O'simlik moylarining sifat tarkibini yaxshilash, ularni fizik-kimyoviy usullar bilan tadqiq etish orqali sof holatdagi o'simlik moylarini mansubligini aniqlash, kimyoviy tarkib asosidagi takomillashtirilgan TIF TN ga kod raqamlar berish, moyli urug'larni eksport, import jarayonlari uchun yangi milliy Tovar kodlarini kiritish orqali mamlakatlar iqtisodiyotini himoyalash, gigiyenik vositalar tayyorlashda tabiiy moylardan foydalanish, moy olinganidan so'ng ikkilamchi mahsulotlar va o'simlik poyalaridan chorvachilik uchun kompozitsion ozuqalar tayyorlashga alohida e'tibor berilmoqda.

Respublikamizda oziq-ovqat va nooziq-ovqat mahsulotlari bozorlarida taklifni oshirish va mavsumiy taqchilliklarni bartaraf etish bo'yicha muhim ishlar amalga oshirilib muayyan natijalarga erishilgan. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "Qishloq xo'jaligi ekinlari urug'chiligini yanada rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-106 sonli qarorida¹ 2022-yildan boshlab "Respublikada sabzavot, poliz, dukkakli, moyli va boshqa ekinlarning urug'chiligini tashkil etish, moyli ekinlarning sara urug'larini yetishtirish" vazifalari belgilab berilgan. Bu borada, aholining moyga va chorvachilik tarmog'ini shrotga bo'lgan talabini qondirish maqsadida urug'ida ko'p miqdorda moy saqlovchi moyli o'simliklardan kungaboqar, kunjut, soya, maxsar, zig'ir, raps kabi ekinlar yetishtirish, ular asosida yangi ozuqaviy mahsulotlar yaratish muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 8-fevraldagi "Chorvachilikni yanada rivojlantirish va chorva ozuqa bazasini mustahkamlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-121-sonli, 2018-yil 29-iyundagi PQ-3818-son "O'zbekiston Respublikasi tashqi iqtisodiy faoliyatini yanada rivojlantirish chora tadbirlari to'g'risida"gi qarorlari hamda 2019-yil 23-oktyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi

¹ O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi huzuridagi Agrosanoat majmui ustidan nazorat qilish inspeksiyasi rasmiy veb sayti. <https://www.agro.uz/moyli-ekinlar-oziq-ovqat-xavsizligini-ta-minlash-asosi/>

qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo'ljallangan strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5853-son Farmonlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Eksportga mo'ljallangan va iste'mol maqsadlarida undiriladigan don, dukkakli hamda moyli ekinlar urug'larini sertifikatlashtirish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi 2024-yil 15-apreldagi 201-sonli qarori hamda ushbu yo'nalishga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishi asosiy ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining VII. "Kimyo texnologiyalari va nanotexnologiyalari" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Moy beruvchi o'simliklarni va ularning kimyoviy tarkibini o'rganish bo'yicha ko'pgina olimlar ilmiy tadqiqot ishlarini olib borishgan, jumladan: soya (*Glycena L*) o'simligida I.V.Gashkova, S.Middelbos, S.George, V.C.Peti, K.B.Paya, L.A.Kucherenko, S.G.Efimenkolar; sedana (*Nigella sativa L*) o'simligi ustida A.K.Aftab, S.A.Mahesar, A.R.Khaskheli, S.T.Sherazi, S.N.Shish, A.G.Shutova, E.V.Spiridovichlar; kunjut (*Sesamum*) o'simligi ustida Christian Ebere, Stanley Chukshuemeka va Emmanuel Chinedu, F.A.Dawodu, O.O.Ayodele, T.Bolanle-Ojo, Mohammed N.Alyemeni, A.Y.Basahy, Hassan Sher; zig'ir (*Linum*) o'simligida A.B.Diyakov, L.A.Kosix, R.Lakshmi Shri, K.Kamalajothu, H.L.Kolin, E.Juan, G.Kasasea, G.Mazza, Xin-Pei YE, Ming-Feng XU, Zhen-Xing Tang kabi olimlar. Shuningdek Z.L.Xaidmuxamedova, J.B.Xudayqulov, H.Atabayeva, O.Qodirxo'jayevlarning chop ettirgan kitoblarida ushbu o'simliklarning biologik va morfologik tasniflari o'rganilgan.

Bugungi kunda K.M.Karimqulov tomonidan O'simlik moylari tarkibidagi yog' kislotalarini transizomerlarini aniqlash va ular asosida TIF TN da sinflash bo'yicha va A.A.Ibragimov hamda shogirtlari tomonidan kompozitsion moylar olish bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Shuningdek I.R.Asqarovning "Tabobat qomusi" kitobida tabobatda o'simlik moylaridan foydalanish bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Biroq, moy beruvchi o'simliklarning kimyoviy elementar tarkibi va uning o'sish hududiga bog'liq holda tuproq-ildiz-poya-urug' tizimida tarqalishi, kimyoviy tarkib asosida moylarning mansubligi va aralash moylarning gigiyenik xususiyatlari hamda moy beruvchi o'simliklar urug'larini TIF TN da sinflanishi to'liq o'rganilmagan.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya ishi Qo'qon davlat pedagogika instituti ilmiy tadqiqot ishlari rejasining "Tovarlarning kimyoviy tarkibi asosida sinflash va sertifikatlash masalalari" yo'nalishida amalga oshirilgan.

Tadqiqotning maqsadi mahalliy sharoitda yetishtiriladigan ayrim moy beruvchi o'simliklarning kimyoviy tarkibini o'rganish, ular asosida kompozitsion ozuqalar, tabiiy gigiyenik vositalar tayyorlash, moylarning mansubligini aniqlash va moyli urug'larning TIF TN da kimyoviy tarkibi asosida sinflash yuzasidan takliflar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

Glycena L, Nigella sativa, Sesamum va *Linum* o'simliklarini yetishtirish uchun

tajriba maydonlarini tanlash va hudud tuproqlarining kimyoviy elementar tarkibini o'rganish;

yetishtirilgan o'simliklar ildizi, poyasi, urug'i tarkibidagi kimyoviy elementlarini aniqlash;

don va urug'laridan ekstraksiya usulida moylarni ajratib olish;

moylarning fizik-kimyoviy ko'rsatkichlarini aniqlash hamda yog' kislota tarkibini IQ va GX-MS usullari yordamida tadqiq etish;

olingan ma'lumotlarga asoslangan holda moylarning mansubligini aniqlash bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish;

o'simlik moylaridan teri uchun foydali xususiyatlarga ega bo'lgan tabiiy gigiyenik vosita tayyorlash;

moy ishlab chiqarish jarayonining qoldiq mahsulotlari va o'simlik poyalarining ozuqaviyligini o'rganib, chorva hayvonlari uchun kompozitsion dag'al ozuqalar tayyorlash;

moyli urug'larning TIF TN da kimyoviy tarkibi asosida sinflash masalasini tahlil qilish hamda tadqiqotlar natijasidan foydalanib ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti sifatida Farg'ona viloyatida yetishtirilgan soya (*Glycena L*), sedana (*Nigella sativa*), kunjut (*Sesamum*) va zig'ir (*Linum*) o'simliklarning ildiz, poya, urug'lari hamda ulardan olingan moylar tanlab olingan.

Tadqiqotning predmeti moyli o'simliklarning ildizi, poyasi va urug'larining kimyoviy tarkibini hamda ulardan olingan moylarning yog' kislota tarkibini o'rganish, olingan natijalar asosida moylarning mansubligini aniqlash yuzasidan takliflar ishlab chiqish hamda turli xil kompozitsion mahsulotlar tayyorlashdan iborat.

Tadqiqotning usullari. Ilmiy tadqiqot ishini bajarishda kimyoviy (ekstraksiya, YuQX, metillash, oqsil gidrolizi) va uskunaviy (refraktometriya, IQ-spektroskopiya, GX, xromato-mass-spektrometriya, YuSSX,) usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilar:

ilk bor moy beruvchi o'simliklarning element tarkibi tuproq-ildiz-poya-urug' tizimidagi makro-, mikroelementlar va og'ir metallarning miqdoriy qiymatlari aniqlangan;

turli hududlarda yetishtirilgan o'simliklar moylarining tarkibidagi yog' kislotalarining miqdoriy ketma-ketligi doimiy ekanligi aniqlangan;

qoldiq o'simlik poyalarining oqsil miqdori o'rganilib, chorva hayvonlari uchun kompozitsion dag'al ozuqalar tayyorlandi va o'tkazilgan tajribalar ularni yuqori samaradorlikka ega ekanligi isbotlangan;

o'simlik moylarining aralashmasidan foydalanib terini parvarish qilishda qo'llaniladigan kompozitsion tabiiy gigiyenik vosita olingan;

sedana (*Nigella sativa*) o'simligi urug'i uchun TIF TN qoidalariga asosan yangi tovar kodi ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

kunjut va soya poyalari hamda qoldiq urug'larining kimyoviy tarkibi asosida qo'ylar uchun dag'al ozuqali kompozitsiyalar ishlab chiqilgan;

sedana va zig'ir moylarining turli nisbatdagi aralashmasidan teri uchun foydali

bo'lgan gigiyenik vosita tayyorlandi;

tashqi iqtisodiy faoliyatda tovarlar nomenklaturasi bo'yicha sedana urug'larining kimyoviy tarkibi asosida 2 ta tovar kodlari ishlab chiqildi.

Tadqiqot natijalarining ishonchligi zamonaviy kimyoviy va fizik-kimyoviy (YSSX, GXMS, induktiv bog'langan plazmali atom adsorbsion spektroskopiya) usullarda standart namunalar bilan taqqoslanib o'rganilganligi hamda olingan natijalar so'ngi yillarda chop etilgan jahon adabiyotlardagi ma'lumotlar bilan qiyoslanganligi va xalqaro nashrlarda ilmiy maqolalar chop etilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati moyli o'simliklarning ildiz, poya va urug'laridagi makro- va mikroelementlar, organik moddalarning miqdoriy qiymatlarining tuproq tarkibiga bog'liq holda o'rganilganligi hamda moylardagi yog' kislotalarining miqdoriy ketma-ketlik tartibini aniqlanganligi bilan ifodalanadi.

Olingan natijalarning amaliy ahamiyati - qo'ylar uchun kompozitsion dag'al ozuqalar olinganligi va tabiiy moylardan iborat teri uchun foydali bo'lgan gigiyenik vositalarga tayyorlanganligi hamda sedana urug'lari uchun TIF TN da yangi tovar kodlarini ishlab chiqilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Soya, zig'ir, sedana va kunjut o'simliklarning ildiz poya va urug'lari hamda ulardan olingan moylarning kimyoviy tarkibini aniqlash bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

soya va kunjut poyalari hamda qoldiq urug'larining kimyoviy tarkibi asosida qo'ylar uchun dag'al ozuqali kompozitsiyalar Farg'ona viloyati Uchko'prik tumani "Z.Madraximov" chorva naslchilik va "Far-Uchko'prik parvoz" ko'p tarmoqli fermer xo'jaliklari hamda Qo'qon davlat pedagogika instituti huzuridagi Dang'ara ko'p tarmoqli texnikumida amaliyotga joriy qilingan (Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo'mitasining 2024-yil 6-sentabrdagi 02/23-2032-son xulosasi). Natijada, qo'y go'shti va terisiga bo'lgan talabni ma'lum darajada qondirish imkonini bergan;

sedana (*Nigella sativa*) urug'lari uchun tashqi iqtisodiy faoliyat tovar nomenklaturasi bo'yicha yangi: maydalanmagan va yanchilmagan urug'lar uchun **0909 61 000 3**, maydalangan yoki yanchilgan urug'lar uchun **0909 62 000 3** tovar kodlari ishlab chiqildi va Davlat bojxona qo'mitasi tomonidan amaliyotga joriy qilish uchun qabul qilindi (Davlat bojxona qo'mitasining 2024-yil 18-oktabrdagi 17/05-24-1894-sonli ma'lumotnomasi). Natijada eksport va import jarayonlarida sedana urug'larini tasniflashni soddalashtirish, statistik ma'lumotlarning aniqligini oshiradi hamda boj to'lovlarini to'g'ri belgilash imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Dissertatsiya ilmiy tadqiqoti natijalari 12 ta ilmiy-amaliy konferensiyalarda, jumladan 7 ta xalqaro, 5 ta Respublika miqyosida o'tkazilgan anjumanlarda ma'ruza qilingan va muhokamalardan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi yuzasidan 17 ta ilmiy ishlar chop etilgan. O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining kimyo fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyalarning asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 5 ta maqola,

jumladan Respublika ilmiy jurnallarida 3 ta, xorijiy jurnallarda 2 ta maqola nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, to‘rt bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan tashkil topgan. Dissertatsiyaning hajmi 105 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning kirish qismida olib borilgan tadqiqotlarning dolzarbligi va zaruriyligi, maqsad va vazifalari asoslab berilgan, tadqiqotning obyekti va predmeti va usullari tavsiflangan, mavzuning O‘zbekiston Respublikasi fan va texnologiyasi taraqqiyotining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi, ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot rejalari bilan bog‘liqligi ko‘rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining joriy qilinishi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi bo‘yicha ma‘lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Soya, sedana, zig‘ir va kunjut o‘simliklarining biologik tavsifi, kimyoviy tarkibi, ishlatilish sohalari hamda tovar sifatida sinflanishi”** deb nomlangan birinchi bobida dissertatsiya mavzusi bo‘yicha ilmiy izlanishlarning sharhi keltirilgan bo‘lib, moyli o‘simliklar, ulardan ajratib olingan kimyoviy birikmalar hamda ularning biologik faolliklari to‘g‘risida umumiy ma‘lumotlarni o‘z ichiga oladi. Shuningdek, moyli ekinlardan olinadigan mahsulotlarning TIF TN bo‘yicha sinflanishi va o‘simlik moylaridan gigiyenik mahsulotlar tayyorlashda foydalanilishi hamda moyli ekinlarning qoldiq don va poyalaridan chorva hayvonlari uchun ozuqa mahsulotlari tayyorlash to‘g‘risidagi ma‘lumotlari ham keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Tadqiqot hududlari tuproqlarining agrokimyoviy xususiyatlari hamda kimyoviy elementlarning “tuproq-ildiz-poya-don” tizimida tarqalishi”** deb nomlangan ikkinchi bobida tadqiqot hududi sifatida tanlangan tuproqlarning agrokimyoviy xususiyatlari hamda morfologik va mexanik tarkibi keltirilgan. Shuningdek, tadqiqot hududi tuproqlarining va yetishtirilgan o‘simliklar ildiz, poya va urug‘larining elementar tarkibi aniqlanib, qiyosiy tahlili o‘tkazilgan.

Tadqiqot hududi sifatida Farg‘ona viloyatida joylashgan Uchko‘prik tumani Mergan MFY “Dilnoza – Dilshoda” fermer xo‘jaligining yer maydoni (So‘x konusining o‘ng qanoti, 1-hudud) va Qo‘qon DPI tasarrufidagi Sariqo‘rg‘on MFY ekin yer maydoni (2-hudud) va Dang‘ara tumani Bog‘ish qishlog‘ining yer maydonlari (So‘x konus yoyilmasining markaziy periferiyasi, 3-hudud) tanlab olindi.

Tuproq namunalari V.V.Dokuchayevning morfogenetik, kesma usulidan foydalanib tayyorlangan. Kesmalar bo‘yicha namunalarning elementar tarkibini aniqlashda neytron aktivatsion analiz (NAA), induktiv bog‘langan plazmali optik emission spektrometriya (ICP-OES) usullaridan foydalanildi. Kesmalar bo‘yicha olingan natijalarning o‘rtacha qiymati 1-jadvalda umumlashtirilgan.

44 ta elementli standart namunalarga nisbatan o‘tkazilgan analizda, barcha hudud tuproqlari tarkibida In va Re elementlari aniqlanmadi. 1-hudud tuproqlarida B, Ag, Bi, Ta elementlari, 2-hudud tuproqlarida Bi elementi, 3-hudud tuproqlarida Sn, Ti va Ta elementlari aniqlanmadi. Ca, Fe, Na va Mg elementlari barcha hudud

tuproqlarida miqdoriy jihatdan yuqori ekanligi qayd etildi.

1-jadval

Tadqiqot hududi tuproqlarining elementar tarkibi mg/kg

Hududlar	Elementlar							
	Li	Be	B	Na	Mg	Al	Si	P
1-hudud	9,375	0,099	0	24262,37	22209,72	13313,98	4228,637	915,617
2-hudud	11,880	0,2035	0	25755,28	23759,92	15072,55	3726,456	1374,286
3-hudud	8,241	0,212333	5,987	10484,5	12845,57	4581,209	1671,488	621,7948
	S	K	Ca	Ti	V	Cr	Mn	Fe
1-hudud	543,3156	23011,07	49461,01	417,262	1,546	21,4936	552,158	43446,3
2-hudud	459,5132	23285,49	52937,63	766,7565	2,30266	4,27633	633,2758	55984,11
3-hudud	1142,988	1846,026	56002,55	0	1,41716	2,47233	17,12683	11596,86
	Co	Ni	Cu	Zn	Ga	Ge	As	Se
1-hudud	0,2862	10,5946	0,9916	1,8254	0,7846	0,0052	0,2136	0,0236
2-hudud	0,51433	1,916833	1,6505	2,961667	1,264333	0,0075	0,47333	0,0475
3-hudud	0,278	1,020333	0,819333	2,145333	0,5605	0,004	0,29683	0,084833
	Rb	Sr	Zr	Nb	Mo	Ag	Cd	In
1-hudud	0,4386	5,5754	0,0388	0,0388	0,0062	0	0,0032	0
2-hudud	0,749333	9,335167	0,066833	0,07316	0,002	0,0035	0,008	0
3-hudud	0,477167	86,47133	0,055833	0,03683	0,067	0,002667	0,004	0
	Sn	Sb	Cs	Ba	Ta	W	Re	Hg
1-hudud	0,087	0,0038	0,0238	1,9806	0	0,0064	0	0,007
2-hudud	0,204833	0,011333	0,044	3,836333	0,002333	0,008333	0	0,008333
3-hudud	0	0,006833	0,032833	2,906833	0	0,011167	0	0,0065
	Tl	Pb	Bi	U				
1-hudud	0,0002	0,0782	0	0,0092				
2-hudud	0,001	0,172167	0	0,016333				
3-hudud	0,002667	0,146667	0,001833	0,0235				

Olingan natijalarga asoslangan holda tadqiqot hududidagi elementlarning konsentratsiya klarki (KK) va klark taqsimoti A. I. Perelman usuli asosida hisoblab topildi.

Shuningdek yuqoridagi usul yordamida yetishtirilgan o'simliklarning organlar kesimida elementlar miqdori ham aniqlandi. Soya o'simligi organlaridagi elementlar miqdori 2-jadvalda keltiriladi.

2-jadval

Soya o'simligi organlarida aniqlangan elementlar miqdori

O'simlik organi	Elementlar						
	Na	K	Ca	Mg	B	P	Fe
ildizi	776,287	5163,177	1845,771	4131,977	4,414	527,215	158,023
poyasi	342,390	3502,399	1726,624	3025,443	4,917	501,281	59,858
doni	303,217	5769,833	8207,185	1571,964	25,634	2817,514	792,230
	Co	S	Cu	Zn	Mn	Mo	Li
ildizi	0,041	627,173	0,247	0,429	1,546	0,166	0,793
poyasi	0,017	669,107	0,137	0,279	0,245	0,205	0,209
doni	0,760	316,237	7,823	17,987	15,822	3,437	0,366
	Ag	Cs	Cd	Al	Si	Ti	Pb
ildizi	0	0,003	0,003	65,149	193,466	0	0,012
poyasi	0	0,001	0,001	9,747	161,594	6,345	0,000

doni	0	0,009	0,018	12,645	106,079	12,490	0,379
	Cr	Se	Ni	Be	V	Ga	Ge
ildizi	0,662	0,034	0,261	0,063	0,188	0,136	0,001
poyasi	0,310	-	0,107	0,063	0,049	0,080	0,000
doni	0,838	-	2,679	0,009	0,360	0,235	0,01
	As	Rb	Sr	Zr	Nb	Sb	Ba
ildizi	0,039	0,189	3,133	0,026	0,004	0,006	0,732
poyasi	0,013	0,107	3,239	0,016	0,000	0,002	0,505
doni	0,289	3,618	38,897	0,046	0,002	0,017	2,540
	W	Hg	Tl				
ildizi	0,002	0,001	0,001				
poyasi	0,002	0,000	0,001				
doni	0,004	0,070	0,124				

Aniqlangan elementlarni makroelementlar, mikroelementlar hamda hayot uchun zaruriy elementlar va og‘ir metallar guruhiga sinflagan holda, ularning ayrimlari uchun o‘simlik organlari bo‘yicha biologik singdirish koeffitsiyenti (BSK) hisoblab chiqildi.

Olingan natijalar asosida tadqiqot uchun yetishtirilgan o‘simliklarning kimyoviy elementlarni singdirish faolligi qatori tuzildi. Qatorlarda elementlar BSK qiymatining ortib borish tartibida joylashtirildi.

1. Soya o‘simligi uchun:

Ildizida: Mn_(0,003) < Cr_(0,00308) < Fe_(0,0036) < Na_(0,0032) < Ca_(0,0037) < Si_(0,00457) < Co_(0,143) < Mg_(0,136) < K_(0,22) < Zn_(0,235) < P_(0,575) < S_(1,15)

Poyasida: Mn_(0,0004) < Fe_(0,0013) < Cr_(0,014) < Na_(0,014) < Ca_(0,035) < Si_(0,0382) < Co_(0,06) < Mg_(0,136) < K_(0,15) < Zn_(0,153) < P_(0,547) < S_(1,23)

Donida: Na_(0,012) < Fe_(0,018) < Si_(0,025) < Mn_(0,0286) < Cr_(0,0389) < Mg_(0,07) < Ca_(0,166) < K_(0,25) < S_(0,582) < Co_(2,655) < P_(3,075) < Zn_(9,85)

Umumiy o‘simlik bo‘yicha: Fe_(0,0076) < Mn_(0,01) < Na_(0,019) < Cr_(0,028) < Si_(0,0363) < Ca_(0,08) < Mg_(0,13) < K_(0,2) < Co_(0,952) < S_(0,987) < P_(1,4) < Zn_(3,41)

2. Zig‘ir o‘simligi uchun:

Ildizida: Mn_(0,002) < Fe_(0,003) < Cr_(0,0183) < Ca_(0,0373) < Si_(0,043) < Co_(0,056) < Na_(0,096) < Mg_(0,105) < K_(0,177) < Zn_(0,253) < P_(0,693) < S_(1,303)

Poyasida: Mn_(0,0005) < Fe_(0,001) < Cr_(0,014) < Ca_(0,0331) < Si_(0,039) < Na_(0,061) < Mg_(0,068) < Co_(0,076) < Zn_(0,166) < K_(0,252) < P_(0,47) < S_(1,348)

Urug‘ida: Fe_(0,028) < Na_(0,0293) < Mn_(0,038) < Si_(0,04) < Cr_(0,077) < Mg_(0,149) < K_(0,183) < Ca_(0,273) < S_(0,837) < Co_(1,91) < P_(4,187) < Zn_(19,276)

Umumiy o‘simlik bo‘yicha: Fe_(0,01) < Mn_(0,0136) < Si_(0,04) < Na_(0,0621) < Cr_(0,097) < Mg_(0,107) < Ca_(0,114) < K_(0,204) < Co_(0,683) < S_(1,162) < P_(1,178) < Zn_(6,575)

3. Kunjut o‘simligi uchun:

Ildizida: Mn_(0,0023) < Fe_(0,003) < Cr_(0,015) < Ca_(0,035) < Na_(0,09) < Co_(0,101) < Mg_(0,143) < Si_(0,198) < Zn_(0,315) < K_(0,375) < P_(0,54) < S_(1,211)

Poyasda: Mn_(0,0011) < Fe_(0,0023) < Cr_(0,0173) < Na_(0,02) < Ca_(0,05) < Co_(0,06) < Si_(0,158) < Mg_(0,161) < Zn_(0,373) < P_(0,639) < K_(0,777) < S_(1,346)

Urug'ida: Na_(0,006) < Mn_(0,0138) < Fe_(0,017) < Si_(0,042) < Ca=Cr_(0,06) < Mg_(0,083) < K_(0,303) < S_(0,966) < Co_(2,1) < P_(5,06) < Zn₍₁₄₎

Umumiy o'simlik bo'yicha: Fe_(0,0075) < Mn_(0,0138) < Cr_(0,03) < Na_(0,038) < Ca_(0,05) < Mg_(0,129) < Si_(0,132) < K_(0,485) < Co_(0,756) < S_(1,174) < P_(2,08) < Zn_(4,91)

4. Sedana o'simligi uchun

Ildizida: Fe_(0,0028) < Mn_(0,004) < Cr_(0,019) < Ca_(0,034) < Co_(0,073) < Na_(0,0877) < Si_(0,131) < K_(0,428) < Zn_(0,463) < Mg_(0,497) < P_(0,567) < S_(1,101)

Poyasda: Fe_(0,0018) < Mn_(0,0033) < Cr_(0,018) < Na_(0,02) < Co_(0,045) < Ca_(0,05) < Si_(0,096) < Mg_(0,15) < P_(0,669) < K_(0,814) < Zn_(1,05) < S_(1,138)

Urug'ida: Na_(0,007) < Fe_(0,0105) < Mn_(0,0227) < Si_(0,033) < Ca_(0,042) < Cr_(0,053) < Mg_(0,072) < K_(0,37) < S_(0,75) < Co_(1,667) < P_(5,295) < Zn_(18,76)

Umumiy o'simlik bo'yicha: Fe_(0,05) < Mn_(0,01) < Cr_(0,03) < Na_(0,038) < Ca_(0,042) < Si_(0,086) < Mg_(0,24) < K_(0,537) < Co_(0,6) < S₍₁₎ < P_(2,177) < Zn_(6,76)

Tahlil natijasida o'simlik organlarida zaharli va og'ir metall elementlari – qo'rg'oshin, mishyak, kadmiy, simob, mis va rux miqdori ruxsat etilgan chegaraviy ko'rsatkichlardan yuqori emasligi aniqlandi.

Se elementi soya ildizi tarkibida uchrasa-da, poya va doni tarkibida aniqlanmadi. Co, Zn va Mn elementlarining miqdori ildizdan poyaga o'tganida kamayib, don tarkibida ortishi kuzatildi. Ushbu holat ayrim mikroelementlarning soya doni tarkibida to'planadi degan xulosaga olib keladi.

Dissertatsiyaning “Yetishtirilgan moy beruvchi o'simliklarning don va urug'laridagi oqsil, yog' va vitaminlarning sifat va miqdoriy ko'rsatkichlari” deb nomlangan uchinchi bobi, tadqiq etilayotgan o'simliklar poya va urug'laridagi ozuqaviy ahamiyatga ega bo'lgan moddalarning miqdoriy qiymatlarini aniqlashga qaratilgan. O'simliklarning don va urug'lari hamda poyalari tarkibidagi umumiy oqsil miqdori Keldal usulidan foydalanib topildi (3-jadval).

3-jadval

Tadqiq etilgan o'simliklarning don va urug'lari hamda poyalaridagi umumiy oqsil miqdori

№	Namuna	Oqsil (%)	№	Namuna	Oqsil (%)
1	Soya doni	34,090	5	Soya poyasi	3,571
2	Sedana urug'i	32.568	6	Sedana poyasi	3,963
3	Kunjut urug'i	23.528	7	Kunjut poyasi	3.162
4	Zig'ir urug'i	24.863	8	Zig'ir poyasi	3.906

Miqdoriy jihatdan o'simlik doni va urug'lari tarkibidagi oqsillar poyalaridagiga nisbatan bir necha barobar ko'p bo'lib, bu qiymat soy uchun 9,5, Sedana uchun 8,2, kunjut uchun 7,44; zig'ir uchun 6,4 ni tashkil etdi.

Oqsil tarkibiga kiruvchi aminokislotalar YSSX Agilent 1260 II Infinity qurilmasida aniqlandi. Analizlar natijasida o'simlik urug'lari tarkibida jami 17 xil aminokislotalar, shundan almashinmaydigan aminokislotalarning barchasi mavjudligi qayd etildi (4-jadval).

4-jadval

Soya donlari, sedana, kunjut va zig'ir urug'lari tarkibidagi aminokislotalar miqdori (mg/gr)

№	Aminokislotalar nomi	Soya doni (mg/g)	Kunjut urug'i (mg/g)	Zg'ir urug'i (mg/g)	Sedana urug'i (mg/g)
1.	Leysin	1,356	1,213	1,215	1,846
2.	Arginin	1,292	1,148	1,472	0,972
3.	Alanin	0,713	0,873	0,604	0,898
4.	Fenilalanin	0,884	0,838	0,741	0,346
5.	Gistidin	0,448	0,415	0,242	0,214
6.	Glitsin	0,744	1,044	1,132	1,647
7.	Glutamin	3,194	3,253	3,146	1,318
8.	Izoleysin	0,745	0,736	0,688	1,014
9.	Asparagin	2,057	1,535	1,834	1,269
10.	Lizin	1,013	0,541	0,622	0,446
11.	Metionin	0,265	0,426	0,212	0,554
12.	Pirolin	0,817	0,741	0,799	2,023
13.	Serin	0,902	0,602	0,831	0,983
14.	Trionin	0,712	0,694	0,677	0,824
15.	Triptofan	0,266	0,378	0,186	0,098
16.	Trozin	0,525	0,785	0,365	0,539
17.	Valin	0,798	0,922	1,012	1,703
Jami		16,731	16,144	15,781	16,694


Don va urug'lardagi umumiy moylar Sokslet qurilmasida ekstraksiya benzin bilan ekstraksiya qilish orqali, qutbli lipidlarni esa Folch usulidan foydalanib ajratib olindi (5-jadval). Olingan moylar tarkibi va ulardagi yog' kislotalar miqdoriy tahlilini o'tkazish uchun *Agilent texnology Cary 630* infraqizilspektrometri (1-rasm), *Agilent Technologies 6890 N* xromatografidan hamda GX-modulida GX 8890 bilan MCD 5977 (*Agilent, AQSH*) birgalikda spektrlari olindi (3-rasm).

5-jadval


Don va urug'laridan olingan lipidlar miqdori va ularning fizik-kimyoviy ko'rsatkichlari

Ko'rsatkich	Sedana	Zig'ir	Kunjut	Soya
Urug' namligi, tarkibidagi uchuvchan moddalar miqdori %	7,52	6,41	6,35	5,23
Quritilmagan holdagi urug' tarkibidagi moy miqdori %	36,75	38,45	49,18	21,68
Quruq holdagi urug'ning moy miqdori %	39,73	41,08	51,98	22,87
Nur sindirish ko'rsatkichi $[\alpha]_{D20}$	1,4682	1,4774	1,4741	1,4768
Kislota soni, mg KOH/g	1,12	0,72	1,16	1,0
Yod soni, % J ₂	112	177	108	136
Qutbli moylar miqdori %	1.01	0,96	0,72	1,45

IQ-spektrsktrlarini tahlil etish natijalariga ko'ra moylarning to'yinmaganlik qatorini quyidagicha keltirish mumkin: zig'ir, soya, sedana, kunjut. Bu moylarning yod soni va to'yinmagan kislotalar miqdori bilan tasdiqlangan (5- va 6- jadvallar).



1-rasm. Sedana moyining IQ spektri



2-rasm. Sedana moyining GX-MS xromatogrammasi

Yuqorida amalga oshirilgan fizik-kimyoviy metodlardan olingan natijalar bir biriga taqqoslandi va qiyosiy tahlillar o'tkazildi. Moylar ishqor bilan gidrolizga uchratilib, hosil bo'lgan yog kislotalarining xromatogrammalari olindi. Olingan ma'lumotlarga asoslanib, tadqiqot obyekti sanalgan moylarning yog' kislota tarkibi jadval ko'rinishiga keltirildi (6-jadval).

6-jadval

Tadqiq etilgan o'simliklar don va urug'laridan olingan moy tarkibidagi yog' kislotalar miqdori (massaga nisbatan%)

	Yog' kislotalar	Sedana (Nigella sativa)		Zig'ir (Linum humile)		Kunjut (Sesamum indicum)		Soya (Glycine)	
		*NL	**QL	NL	QL	NL	QL	NL	QL
1	Laurin kislota, 12:0	0,29	-	-	-	-	-	-	0,03
2	Miristin kislota, 14:0	0,17	0,29	0,05	0,20	Сл.	0,69	0,09	0,25
3	Pentadekan kislota, 15:0	-	-	-	0,09	-	-	-	0,10
4	Palmitin kislota, 16:0	11,88	14,21	5,56	14,35	8,60	15,53	10,73	23,05
5	Palmitolein kislota, 16:1	0,22	0,27	0,11	0,57	0,11	0,09	0,05	0,21
6	Margarin kislota, 17:0	0,06	0,09	0,08	0,22	0,06	0,13	0,09	0,18
7	Stearin kislota, 18:0	2,73	3,41	4,95	4,98	5,16	7,77	4,79	3,59

8	Olein kislota, 18:1ω9	23,89	25,71	20,62	23,58	41,74	37,30	21,87	13,56
9	Linol kislota, 18:2ω6	56,27	52,03	14,61	31,04	43,16	36,37	52,59	48,74
10	Linolein kislota, 18:3ω3	0,70	Сл.	51,84	23,33	0,2	Сл.	8,65	6,83
11	Araxin kislota, 20:0	0,19	0,20	0,21	0,16	0,56	0,57	0,40	0,11
12	Eykozan kislota, 20:1ω9	0,44	0,80	0,44	0,60	0,22	1,17	0,22	0,17
13	Eykozen kislota, 20:2 ω11	3,16	2,78	-	-	-	-		
14	Begen kislota, 22:0	Сл.	0,21	0,18	0,24	0,12	0,22	0,35	0,08
15	Eruk kislota, 22:1	-	-	1,18	0,15	-	-	-	0,09
16	Lignosterin kislota, 24:0	-	-	0,12	0,23	0,07	0,16	0,17	-
17	Nervon kislota, 24:1	-	-	0,05	0,26	-	-		
	ΣTo‘yingan nYK	15,32	18,41	11,15	20,47	14,57	25,07	16,62	27,39
	ΣTo‘yinmagan YK	84,68	81,59	88,85	79,53	85,43	74,93	83,38	72,61

**NL-neytral lipidlar; **QL-qutbli lipidlar*

Tajriba o‘tkazilgan moylar tarkibida 17 xil yog‘ kislotalari mavjudligi aniqlandi. Olingan moylarning asosiy tarkibini to‘yingan yog‘ kislotalardan palmitin kislota (16:0), to‘yinmagan yog‘ kislotalardan olein (18:1ω9), linol (18:2ω6), linolein (18:3ω3) kislotalari tashkil etishini ko‘rishimiz mumkin. Eng ko‘p linol kislota sedana moyida 56,27%, soya moyi tarkibida esa 52,59% dan iborat. Linolein kislota zig‘ir moyi tarkibida qolgan moylarga nisbatan yuqori 51,84% ekanligi aniqlandi.

Kunjut moyi tarkibida ikkita olein (41,74%) va linol (43,16%) yog‘ kislotalari deyarli teng ko‘rsatkichga ega bo‘lgan holda umumiy yog‘ kislotalarining eng ko‘p qismini tashkil etdi. Shu bilan birgalikda ayrim yog‘ kislotalari ma‘lum bir o‘simlik moyidagina uchradi. Misol uchun: sedana moyi tarkibida eykozen kislota (20:2), zig‘ir moyida nervon kislota (24:1) va eruk kislota (22:1) mavjud bo‘lib, ular qolgan o‘simlik moylari tarkibida aniqlanmadi.

Tadqiqotlarimiz davomida don va urug‘lardagi umumiy polisaxaridlar miqdori ham o‘rganildi(7-jadval).

7-jadval

Soya, sedana, kunjut va zig‘ir o‘simliklarining urug‘ va poyalari tarkibidagi umumiy polisaxaridlar miqdori

№	Namuna	Polisaxaridlar miqdori %	№	Namuna	Polisaxaridlar miqdori %
1	Soya doni	7,45	5	Soya poyasi	3,17
2	Sedana urug‘i	6,79	6	Sedana poyasi	2,96
3	Kunjut urug‘i	6,63	7	Kunjut poyasi	3,45
4	Zig‘ir urug‘i	7,87	8	Zig‘ir poyasi	3,19

Umumiy polisaxaridlar miqdori eng ko‘p zig‘ir urug‘ida (7,87 %), keyingi o‘rinlarda soya (7,45%), sedana (6,79%), kunjut (6,63%) urug‘larida aniqlandi. Poyalar tarkibidagi polisaxaridlar miqdori bo‘yicha quyidagi ketma-ketlikda kamayib bordi: kunjut (3,45%), zig‘ir (3,19%), soya (3,17%), sedana (2,96%). Ushbu olingan natijalar tadqiq etilgan o‘simliklarning yer ustki qismidan kelgusida chorva hayvonlari uchun to‘yimli bo‘lgan aralash kompozitsion ozuqalar olishda foydalanish mumkin ekanligini asoslaydi.

O‘rganilayotgan o‘simliklar tarkibidagi vitaminlarni Yaponiyada (Shimadzu) ishlab chiqarilgan YSSX LC 2030 C 3D Plus qurilmasi PDA detektorida

260, 290 va 361 nm to‘lqin uzunligi tanlangan holatda sifat va miqdor ko‘rsatgichlari aniqlandi (8-jadval).

8-jadval

Soya, kunjut, zig‘ir va sedana o‘simliklarining don, urug‘ va poyasi tarkibidagi vitaminlar miqdori

Na‘munalar	Vitamin B ₁ mg/kg	Vitamin B ₂ mg/kg	Vitamin B ₆ mg/kg	Vitamin B ₁₂ mg/kg	Vitamin PP mg/kg	Vitamin C mg/kg
Soya poyasi	0,5	0,5	-	-	1	24,6
Kunjut poyasi	16	-	-	-	-	25,4
Zig‘ir poyasi	14,3	-	-	-	-	44,2
Sedana poyasi	6,8	-	-	-	-	34,2
Soya doni	18,5	-	1,5	-	-	23,4
Knjut urug‘i	1,4	-	-	-	-	32,36
Zig‘ir urug‘i	0,4	-	-	-	-	14
Sedana urug‘i	1,95	-	-	-	-	35,1

B₁ va C vitaminlari barcha o‘simliklar poya va urug‘lari tarkibida aniqlandi. B₂, PP vitaminlari soya poyasi tarkibida va B₆ vitamini soya donida aniqlanib qolgan namunalarda aniqlanmadi. C vitamini eng ko‘p zig‘ir poyasida (44,2 mg/kg), eng kam miqdorda uning urug‘lari tarkibida (14 mg/kg) uchradi. 3.8– jadvalga muvofiq C vitaminining miqdori qolgan o‘simliklar poya va urug‘larida bir-biriga yaqin qiymatda ekanligini ko‘rish mumkin. Lekin o‘simlik poyasidagi B₁ vitamini miqdori urug‘i tarkibidan keskin farq qildi. Misol uchun B₁ vitamini soya poyasida (0,5 mg/kg) kam, uning urug‘i tarkibida (18,5 mg/kg) ko‘p miqdorda uchrasa-da qolgan namunalarda buning aksi aniqlandi, yani kunjut poyasida (16 mg/kg) ko‘p, urug‘i tarkibida (1,4 mg/kg) kam, zig‘ir poyasida (14,3 mg/kg) ko‘p, uning urug‘ida (0,4 mg/kg) kam, sedana poyasida (6,8 mg/kg) ko‘p, urug‘i tarkibida (1,95mg/kg) kam. Bu holat sedana, kunjut va zig‘ir o‘simlik poyalari urug‘lariga nisbatan B₁ vitaminiga boy degan xulosani beradi.

Dissertatsiyaning “**Ayrim o‘simliklarning moylari hamda poyalari asosida kompozitsion mahsulotlar olish. Sedana urug‘ining TIF TN da tasniflanishi**” deb nomlangan IV bobida chorva hayvonlari uchun dag‘al ozuqa o‘rnini bosuvchi kompozitsion ozuqa mahsulotini tayyorlash uchun maqbul tarkibni tanlash va uning chorva fermalarida o‘tkazilgan tadqiqotlar natijalari keltirilgan. Shuningdek moylarning yog‘ kislota tarkibi bo‘yicha mansubligini aniqlash, aralash moylardan foydalanib teri uchun tabiiy gigiyenik vosita tayyorlash hamda Sedana (*Nigella sativa*) urug‘lari uchun yangi tovar kodlari ishlab chiqilgan.

Tadqiq etilgan o‘simlik poya va donlarining ozuqaviylik qiymatlari 9-jadvalda keltirilgan. Jadvalda keltirilgan ma‘lumotlardan foydalangan holda turli nisbatlarda olingan mahsulotlarning ozuqaviylik darajasi hisoblab chiqilgan.

9-jadval

Tadqiq etilgan o‘simliklarning ozuqaviy tarkibi (%)

	Suv	Quruq moddalar	Xom protein	Xom yog‘	Xom kul	Xom tola	Azotsiz ekstraktiv modda	YE Mj/kg	Almashinish energiyasi
Soya doni	5,3	94,7	34,8	21,4	6,2	21,5	10,8	23	15,1
Sedana urug‘i	7,5	92,5	30,2	37,2	5,1	12,4	7,6	26,2	17,2
Kunjut urug‘i	5,9	94,1	20,6	48,4	4,3	14,5	6,3	27,4	17,9

Zig'ir urug'i	6,4	93,6	27,9	34,8	6,7	14,5	7,7	25,5	16,7
Soya poyasi	8,6	91,4	4,64	4,86	10,7	33,8	37,4	18,1	12,5
Sedana poyasi	9,7	90,3	7,32	5,75	8,35	32,4	36,5	19,5	13,4
Kunjut poyasi	10	90	5,02	6,13	9,32	31,6	36,93	18,6	12,8
Zig'ir poyasi	8,8	91,2	4,7	4,2	9,8	35,7	36,8	18,2	12,5

Olingan ma'lumotlarga asoslangan holda moyli o'simliklar poyalari orasidagi turli nisbatga ko'ra kompozitsiyalar shakllantirildi. Tanlangan kompozitsiyalardan granular tayyorlash uslubiyoti ishlab chiqildi. 10-jadvalda olingan kompozitsiyalarning o'zaro nisbatlari keltirilgan.

10-jadval

Tavsiya etilgan qo'ylar ozuqasi tarkibi (soya va kunjut poyalari massaviy ulushlarda %)

Ingridentlar	1:1 (1-kompozitsiya)	2:1 (2-kompozitsiya)	1:2 (3-kompozitsiya)
Soya poyasi	45	60	30
Kunjut poyasi	45	30	60
Bug'doy kepagi	5	5	5
Poyalardagi don qoldiqlari	4,5	4,5	4,5
Bug'doy pulpasi (sirt achitqi qoldig'i)	0,1	0,1	0,1

Granular tayyorlash tartibi. Yetilgan soya, kunjut poyalari maydalanib kraxmalli bog'lovchi qo'shimchalar (bug'doy kepagi 5% gacha), maydalangan donlar, urug'lar (5 % gacha) va 0,1% achitqi va 8-10 % suv qo'shib aralashtirildi. Hosil bo'lgan massa saqlash vaqti davomida (1,5-2 soat) nam tortish hisobiga hajmi kattalashdi. Xamirsimon massa granulyator shneki orqali 3 mm li tirqishlardan o'tkazildi. Hosil bo'lgan granular tarkibidagi kraxmal hisobiga qotib, sochilmaydigan ko'rinishga keldi. Tayyor holdagi mahsulotni to'g'ridan to'g'ri qo'ylarga berilishi yoki qadoqlanishi mumkin.

O'simlik moylaridan foydalangan holda teri uchun foydali bo'lgan kompozitsion gigiyenik vosita olish. O'simlik moylari kimyoviy jihatdan epidermisga juda yaqin bo'lib, ular teri to'qimalariga chuqur kirib bora oladi va to'qimalarning har biriga o'ziga xos ta'sir ko'rsatadi. Shu bilan birga ular yog'li terida sebum ishlab chiqarishni barqarorlashtiradi, quruq terini yog'li moddalar bilan ta'minlaydi va sezgir terida tinalish xususiyatini yo'qotadi. Parfyumeriya sohasida o'simlik moylari uchun komedogenlik shkalasi kiritilgan bo'lib moylarning tarkibi va teriga ta'sir etishi bo'yicha turli qiymatlarga ega.

Masalan, zig'ir urug'i moyining komedogenlik shkalasi 4 ga, sedana moyiniki 2 ga teng. Kosmetika sohasida sedana moyi asosan yog'li terilar uchun tavsiya etilsa, zig'ir moyi quruq terilar uchun tavsiya etiladi.

Sedana va zig'ir moylaridan tayyorlangan aralashmalarning komedogenlik ko'rsatkichini aniqlash uchun vazni 3-4 kg bo'lgan quyonlarning qulog'ining ichki tomoniga haftada 5 kun, kuniga ikki mahal 1-5 ml dan surtib borildi. Har bir quyonning bitta qulog'iga surtilib ikkinchi qulog'i nazorat sifatida raqamlab qo'yildi. Quyonlar bir sutkada 12 soat yorug'likda, 12 soat davomida qorong'i joyda saqlandi.

Tajriba soʻngida quyonlarning qulogʻining ichki tomonidagi teri epidermis tekshirilib namuna moylarning komedogenlik koʻrsatkichlari aniqlandi (11-jadval).

11-jadval

Turli nisbatlarda olingan moylar aralashmasining komedogenlik koʻrsatkichi

Moylar	Sedana moyi	Zigʻir moyi								
Nisbatlar	1:1		3:1		5:1		1:3		1:5	
Komedogenlik koʻrsatkichi	3-4		2-3		2		3		4	

Olingan natijalardan eng maqbul nisbat: oddiy teri uchun 1:1 nisbat (Namuna-1); yogʻli teri uchun 5:1 nisbat (Namuna-2); quruq teri uchun 1:5 nisbat (Namuna-3)lar ekanligi aniqlandi.


Olingan kompozitsion moylarning yogʻ kislota tarkibi oʻrganilganda komedogenlik qiymati teng boʻlgan boshqa moylarning yogʻ kislota tarkibiga sifat va miqdoriy jihatdan yaqin ekanligini aniqlandi.

Tadqiqotlar natijasida olingan kompozitsion moylarga “Zisiderm-Oil 1”; “Zisiderm-Oil 2”; “Zisiderm-Oil 3” deb nom berildi.

Oʻsimlik moylarining yogʻ kislotalari miqdoriga koʻra mansubligini aniqlash. Moylarining yogʻ kislotalari tarkibiga koʻra ularni qaysi oʻsimlikka tegishli ekanligi toʻgʻrisida xulosa qilish mumkin yoki mumkin emas degan savollarga javob topish maqsadida turli mintaqalarda yetishtirilgan moylardagi yogʻ kislotalari tarkibi tahlil qilingan manbalar oʻrganildi hamda mahalliy hududda yetishtirilgan soya, sedana, zigʻir va kunjut oʻsimligi moylarining yogʻ kislota tarkibi bilan taqqoslandi. Buning uchun moylarning miqdoriy jihatdan eng koʻp qiymatga ega boʻlgan yogʻ kislotalari oʻrganildi va qiyosiy tahlili oʻtkazildi.


Tahlillar natijasida maʼlum boʻldiki, oʻsimlik moyining asosiy qismini tashkil etuvchi yogʻ kislotalarning miqdori oʻsimlik yetishtirilgan hudud sharoitiga bogʻliq holda oʻzgarishga uchrasa-da, lekin ularning miqdor jihatdan ortib borish (yoki kamayib borishi) tartibi oʻzgarmas qiymatga ega. Bu holat (qonuniyat)ni quyida keltiriladigan (4-, 5-, 6-, 7-rasmlar) diagrammalar tasdiqlaydi.

Soya moyi uchun: *Stearin kislota* 18:0 < *Linolein kislota* 18:3 < *Palmitin kislota* 16:0 < *Olein kislota* 18:1 < *Linol kislota* 18:2




4-rasm. Soya moyi tarkibidagi asosiy yogʻ kislotalarning ortib borishi

Kunjut moyi uchun: *Stearin kislota* $18:0 < Palmitin kislota$ $16:0 < Olein kislota$ $18:1 < Linol kislota$ $18:2$ (ayrim hollarda linol kislota miqdori olien kislota miqdorida teng yoki kam bo'lishi mumkin.)




5-rasm. Kunjut moyini asosiy tarkibini tashkil etuvchi yog' kislotalar

Zig'ir moyi uchun: *Stearin kislota* $18:0 < Palmitin kislota$ $16:0 < Linol kislota$ $18:2 < Olein kislota$ $18:1 < Linolein kislota$ $18:3$ (ayrim hollarda olein kislota miqdori linol kislotaga teng yoki kam bo'lishi mumkin)



6-rasm. Zig'ir moyi tarkibini tashkil etuvchi asosiy yog' kislotalar miqdori

Sedana moyi uchun: *Stearin kislota* $18:0 < Palmitin kislota$ $16:0 < Olein kislota$ $18:1 < Linol kislota$ $18:2$



7-rasm. Sedana moyidagi asosiy yog' kislotalarning ortib borishi

Sedana urug'ining TIF TN bo'yicha tasniflanishi. Mahalliy sharoitga moslashgan va xalqimiz tomonidan istemolda hamda tabobatda keng foydalaniladigan qora sedana (*Nigella sativa* L)ning O'zbekiston Respublikasi Tashqi

iqtisodiy faoliyat tovarlar nomenklaturasida umumiy tavsif beruvchi kod raqamlari bilan sinflanadi. Biz tomonimizdan olib borilgan tadqiqot natijalariga asoslangan holda maydalanmagan va yanchilmagan Sedana (*Nigella*) urug‘lari uchun yangi 0909 61 000 3-tovar kodini, maydalangan va yanchilgan Sedana (*Nigella*) urug‘lari uchun yangi 0909 62 000 3-kod raqamlar bilan sinflash taklif etildi.

XULOSA

Soya (*Glycena L*), sedana (*Nigella sativa*), kunjut (*Sesamum*) va zig‘ir (*Linum*) kabi moyli os‘imliklarning ildiz, poya, urug‘larining elementar va organik tarkibi hamda ulardan olingan moylarning yog‘ kislota tarkibini o‘rganish yuzasidan olib borilgan tadqiqotlar natijasida quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Farg‘ona viloyatida yetishtirilgan Soya (*Glycena L*), sedana (*Nigella sativa*), kunjut (*Sesamum*) va zig‘ir (*Linum*) o‘simliklarining elementar tarkibi, tuproq-ildiz-poya-urug‘ tizimida ilk bor majmuaviy ravishda o‘rganildi.

2. Tuproq tarkibidagi kimyoviy elementlarning konsentratsiya klarki va klark taqsimotlari o‘rganilib, Na, Mg, Ca, P, S va Fe elementlari tadqiqot hududi tuproqlari tarkibida to‘planayotganligi aniqlandi. Shuningdek elementlarning BSKni o‘rganish orqali, tadqiq etilgan o‘simliklarning barcha organlarida hayotiy zarur elemntlardan Fe, poyalarda esa K eng ko‘p miqdorda uchrashi hamda og‘ir metallar miqdori tuproq tarkibiga bog‘liq holda o‘simliklar tomonidan turlicha o‘zlashtirilishi aniqlandi.

3. Moyli o‘simliklarning urug‘lari va poyalarining ozuqaviy qiymatlari yuqori ekanligi va oqsil hosil qiluvchi 17 xil aminokislotalarga ega ekanligi aniqlandi.

4. Soya va kunjut poyalari hamda qoldiq urug‘laridan foydalangan holda qo‘ylar uchun dag‘al kompozitsion ozuqa tayyorlandi. O‘tkazilgan tajribalar natijasida qo‘ylar vaznining nazorat variantlariga nisbatan 3,2% ga ortishi qayd etildi.

5. Olingan natijalar boshqa mintaqalarda yetishtirilgan o‘simlik moylarining yog‘ kislotalari bilan taqqoslandi. Tahlillar natijasida birinchi marta moylar tarkibidagi yog‘ kislotalarning miqdori o‘simlik yetishtirilgan hududga va tuproq tarkibiga bog‘liq bo‘lmagan holda qat‘iy ketma-ketlikda bo‘lishi aniqlandi.

6. Sedana va zig‘ir moylaridan turli nisbatlarda tayyorlangan kompozitsion moylarining komedogenlik ko‘rsatkichlari o‘rganildi hamda quruq, yog‘li va aralash teri turlari uchun foydali bo‘lgan gigiyenik vosita mahsuloti olish mumkin ekanligi isbostlandi.

7. Moyli urug‘larning O‘zbekiston Respublikasi TIF TN da sinflanishi o‘rganilib, sedana (*Nigella*) urug‘lari uchun podsubpozitsiyalarda yangi 0909 61 000 3, 0909 62 000 3 tovar kodlari ishlab chiqildi va amaliyotga joriy etish uchun tavsiya etildi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ PhD.03/30.12.2019.K.05.01
ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ
ПРИ ФЕРГАНСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ УНИВЕРСИТЕТЕ**

**КОКАНДСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ПЕДАГОГИЧЕСКИЙ
ИНСТИТУТ**

ТОЖИБОВ ДАСТОНБЕК РАХИМЖОН УГЛИ

**НЕКОТОРЫЕ МАСЛИЧНЫЕ КУЛЬТУРЫ: ХИМИЧЕСКИЙ СОСТАВ
И КОМПОЗИЦИОННЫЕ ПРОДУКТЫ НА ИХ ОСНОВЕ**

02.00.09 – Химия товаров

**АВТОРЕФЕРАТ
диссертации доктора философии (PhD) по ХИМИЧЕСКИМ НАУКАМ**

Фергана – 2025

Тема диссертации доктора философии (PhD) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан за B2024.3.PhD/K831.

Докторская диссертация выполнена в Кокандском государственном педагогическом институте.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещен на сайте Научного совета (www.fdu.uz) и Информационно-образовательном портале «ZiyoNet» (www.ziyo.net).

Научный руководитель:

Исаков Мухамеджан Юнусович
кандидат химических наук, доцент

Официальные оппоненты:

Хожиматов Махсадбек Муйдинович
доктор химических наук, профессор

Имомова Мукамал Ермухаматовна
доктор философии по химическим наукам, доцент

Ведущая организация:

Наманганский государственный университет

Защита диссертации состоится «___» _____ 2025 г. в ___ часов на заседании Научного совета PhD.03/30.12.2019.B.05.03 при Ферганском государственном университете (Адрес: 150100, г. Фергана, ул. Мураббийлар, д.19. Тел: (+99873) 244-44-02; факс: (+99873) 244-44-93; Электронная почта: fardu_info@mail.uz).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Ферганского государственного университета (регистрационный номер №___). (Адрес: 150100, г. Фергана, ул. Мураббийлар, д.19. Тел:244 44 02).

Автореферат диссертации разослан «___» _____ 2025 года.
(Протокол рассылки № ___ от «___» _____ 2025 года).

В.У.Хужаев

Председатель научного совета
по присуждению ученых степеней
доктор химических наук, профессор

Ш.Ш.Тургунбаев

Ученый секретарь научного совета
по присуждению ученых степеней, PhD

Ш.В.Абдуллаев

Председатель научного семинара при научного
совета по присуждению ученых степеней,
доктор химических наук, профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. Увеличение численности населения в мире приводит к увеличению спроса на потребительские товары. Это, в свою очередь, наряду с качественной продукцией приводит к увеличению различных видов некачественной продукции. По данным Продовольственной и сельскохозяйственной организации при ООН за 2023 год, в мире на площади 324,5 млн га произведено 1,101 млн тонн продукции из 21 вида масличных культур. Основными масличными культурами являются пальма, зерно сои, семена хлопчатника, семена рапса и растение кокос. Несмотря на это, создание новых запасов сырья для производства качественных продуктов питания и поиск новых способов получения из них необходимой продукции различными способами, а также использование системы безотходных технологий является одной из актуальных задач сегодняшнего дня.

В мире ведутся научные исследования по использованию растительных масел не только в качестве пищевых продуктов, но и в фармацевтике, парфюмерии, смазке промышленного строительного оборудования и других отраслях, а также по использованию вторичных продуктов, выделяющихся в процессе производства масла, в качестве питательного корма при кормлении скота. Особое внимание уделяется улучшению качественного состава растительных масел, определению принадлежности растительных масел в чистом виде путем их исследования физико-химическими методами, присвоению кодовых номеров усовершенствованной ТН ВЭД на основе химического состава, защите экономики стран путем введения новых национальных товарных кодов для процессов экспорта и импорта масличных семян, использованию натуральных масел при изготовлении гигиенических средств, приготовлению вторичных продуктов.

В нашей республике проводятся важные работы по увеличению предложения на продовольственных и непродовольственных рынках и устранению сезонных дефицитов. Законодательной основой для этого служит Указ Президента Республики Узбекистан от 28 января 2022 года УП-60 “О стратегии развития Нового Узбекистана”². Также в соответствии с постановлением Президента Республики Узбекистан от 28 января 2022 года No ПП-106 “О дополнительных мерах по дальнейшему развитию семеноводства сельскохозяйственных культур” с 2022 года впервые в республике для организации семеноводства овощных, бахчевых, бобовых, масличных и других культур выделено 13 тысяч 395 гектаров земельных площадей. Из них на 1330 гектарах организовано выращивание лучших семян масличных культур. В результате этого, в целях удовлетворения потребности населения в масле и животноводческой отрасли в шроте, из масличных растений, содержащих

² Указ Президента Республики Узбекистан от 28 января 2022 года УП-60 “О Стратегии развития Нового Узбекистана”.

большое количество масла в семенах, выращиваются такие культуры, как подсолнечник, кунжут, соя, сафлор, лен, рапс³.

